QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI SHAHRI HOKIMINING
Q A R O R I

180100, Qarshi shahri, I.Karimov ko‘chasi, 60-uy. Faks (+99875)223-08-93, qarshi.sh@exat.uz

2021 - yil 15 - oktabr 476-4-69-Q/21 Qarshi shahar hokimligi

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun *(2020-yil 20-oktyabrdagi O‘RQ-642-son Qonunining 38-39-40-41-42-43 moddalari)* va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, *(O‘zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 11.12.2017-y. 09/17/965/0393-son)*da belgilangan vazifalar ijrosi hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993y., 9-son, 320-modda)* 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati o‘rtacha sonining 7 foizi miqdorida, bu 370 kishini ***(2-ilovaga muvofiq)*** tashkil etadi. Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun ***18 foiz (66 kishi);***

-umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun ***22 foiz (83 kishi);***

-"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun ***29 foiz (108 kishi);***

-O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun ***5 foiz (17 kishi);***

-nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ***6 foiz (23 kishi);***

-pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun ***6 foiz (24 kishi);***

-jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun ***4 foiz (14 kishi);***

-odam savdosidan jabrlanganlar uchun ***1 foiz (5 kishi);***

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ***8 foiz (30 kishi).***

3. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlasin.

Bunda:

nogironlar uchun salomatligi va mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan belgilangan talablar hisobga olingan holda mehnat vazifasini to‘siqsiz bajarish imkonini beruvchi ish joylari;

yoshlar uchun, ular umumta’lim muassasalarini tamomlaganlaridan keyin ularning kasb-hunar tayyorgarligiga muvofiq keluvchi ish joylari;

14 yoshga to‘lmagan bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalarga hamda ko‘p bolali ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bajarishni birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi, o‘zgaruvchan jadvalli ish joylari;

jazoni ijro etish muasasalaridan ozod qilingan yoki sud qarori bilan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun ularning kasb tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari.

4. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 *(yigirma besh)* foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorgarligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazini xabardor qilinsin.

5. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot *(ish beruvchi)* tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

6. Ushbu qarorda nogironlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonidan ortiqcha nogironlar uchun ish o‘rinlari tashkil etgan tashkilotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

7. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha Qarshi shahar hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilangan.

8. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5 kunigacha Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga **3-ilovasiga** muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida ma’lumot taqdim etib borsin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi *(AV ro‘yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-yil)* buyrug‘iga asosan, subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olgan holda, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng sondan ortiq miqdorida ishga qabul qilgan korxona va

tashkilotlarga - har bir xodim uchun 12 oyi davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash tavsiya etilsin.

9. Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi D.Uzoqovga:

bir hafta muddatda, mazkur qarorning 2-ilovasida ko‘rsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Qarshi shahar hokimining 2020-yil 22-sentabrdagi HQ-1861/9-sonli qarori 2021-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Qarshi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari J.Raxmanqulov zimmasiga yuklatilsin.

12. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Қарши шахари ҳокими **N.Xolboyev**

Қарши шаҳар ҳокимининг
2021 йил 15 октябрдаги
476-4-69-Q/21-сон қарорига
1-илова

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarning soni o‘zgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish o‘rinlarining eng kam soni va ularga qo‘yiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi

T/r	F. I. Sh	Lavozimi
1	J.Raxmanqulov	Qarshi shahar hokimining birinchi o‘rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ‘ Z O L A R I		
2	J.Abduazizov	Qarshi shahar Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	B.Mirzaev	Qarshi shahar IIB boshlig‘i
4	B.Sultonxadjaev	Qarshi shahar mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
5	Sh.Ashurov	Qarshi shahar Moliya bo‘limi mudiri
6	N.Samadova	Qarshi shahar Xalq ta’limi mudiri
7	Z.Abulqosimov	Qarshi shahar TMEK raisi

Қарши шаҳар ҳокимининг
2021 йил 15 октябрдаги
476-4-69-Q/21-сон қарорига
2-илова

Қарши шаҳар бўйича 2021 йилда Аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйиладиган иш ўринларининг МАНЗИЛЛИ РЎЙХАТИ

Т/р	Аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифаларини ишга жойлаштириш учун иш ўринларини белгилаш таклиф этилаётган корхона, ташкилот ва муассасалар номи	Штат жадвали бўйича ходимларнинг умумий сони (бирлик)	Келгуси йилга заҳирага қўйиш учун таклиф этилаётган иш ўринлари сони *(7%)*	*шу жумладан*								
				Ўн тўрт ёшга тўлмаган болалари, ногиронлиги бўлган болалари бор ёлғиз отага ёки онага, шунингдек кўп болали оилаларнинг ота-оналари учун	Умумий ўрта ва ўрта махсус таълим ташкилотларини, касб-ҳунар мактабларини, касб-ҳунар коллежларини ҳамда техникумларни тамомлаб, касбга эга бўлган ёшлар учун	"Меҳрибонлик" уйларининг битирувчилари, шунингдек олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари учун	Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлигининг, Ички ишлар вазирлигининг, Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг, Миллий гвардиясининг, Давлат хавфсизлик хизматининг қўшинларидаги муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар учун	Ногиронлиги бўлган шахслар учун *(3%)*	Пенсияолди ёшидаги шахслар учун	Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суд қарорига кўра ўзига нисбатан тиббий йўсиндаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун	Одам савдосидан жабрланганлар учун	Қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа шахслар учун
1	Қашқадарё вилоят кўп тармоқли тиббиёт маркази	611	**9**	**2**	2	2	1	1	0	1	0	0
2	Республика ихтисослаштирилган кардиология маркази Қарши филиали	202	**6**	2	1	2	0	0	0	0	0	1
3	Вилоят эндокринология диспансери	314	**7**	2	2	2	0	0	0	0	0	1
4	Қашқадарё вилоят 1-сонли асаб-гухий касалликлар диспасери	611	**7**	1	2	1	0	1	1	0	0	1
5	Қашқадарё вилоят тери-таносил касалликлар диспансери	159	**5**	1	1	1	1	0	0	0	0	1
6	Вилоят Суд тиббий экспертиза бюроси	112	**4**	1	1	1	0	0	0	0	0	1
7	Вилоят Фтизиатрия диспансери	470	**7**	1	2	1	1	0	1	0	0	1
8	Қашқадарё вилоят онкология диспансери	206	**7**	2	2	1	0	1	0	0	0	1
9	Қарши шахар болалар мурувват уйи	292	**5**	1	2	1	0	0	0	0	0	1
10	Вилоят юқумли касалликлар шифохонаси	430	**6**	2	2	1	0	0	0	0	0	1
11	Республика шошилинч тиббиёт илмий маркази Қашқадарё филияли.	1358	**16**	2	4	3	1	1	2	1	0	2
12	Қашқадарё вилоят соғлиқни сақлаш бошқармасига қарашли Махсус ва тез тиббий йордам автохўжалиги	1276	**18**	3	4	1	1	3	2	2	0	2
13	Республика ихтисослаштирилган акушерлик ва гнекология илмий амалий маркази тиббиёт маркази Қарши филиали	730	**10**	2	3	2	1	1	1	0	0	0
14	Вилоят болалар кўп тармоқли тиббиёт маркази	1390	**12**	2	3	2	1	1	1	0	0	2
15	Қарши шахар тиббиёт бирлашмаси	1800	**31**	5	8	6	2	2	2	1	0	5

16	Қашқадарё вилояти ногиронларини реабилитация қилиш ва протезлаш маркази	86	**4**	1	1	1	0	1	0	0	0	
17	Кексалар, ногиронлиги булган шахслар, уруш ва меҳнат фахрийлари учун Қарши санаторияси	82	**4**	1	1	1	0	0	0	0	0	1
18	АТ Алоқа банк Қашқадарё филлиали	59	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
19	Ипотека банк АТИБ Қашқадарё филиали	86	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
20	Ипак йўли АИТБ Қарши филиали	79	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
21	Ўзсаноатқурилиш банк АТБ Қашқадарё минтақавий филиали	120	**2**	1	0	1	0	0	0	0	0	0
22	Агро банк АТБ вилоят бошқармаси	121	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
23	Савдогарбанк АТБ Қашқадарё филиали	35	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
24	Ўз миллий банк Қашқадарё вилоят бўлими	97	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
25	Карши шахар Халқ банк АТБ	119	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
26	Микро кредит АТБ Қашқадарё минтақавий филали	66	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
27	"Трастбанк" банк	50	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
28	"Туронбанк" АТБ Қарши филиали	50	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
29	"InFinBank" АТБ Қашқадарё филиали	47	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
30	АТ" Қишлоқ қурилиш банк" Қашқадарё филиали	85	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
31	Қарши Давлат Университути	921	**12**	1	0	5	1	2	2	0	0	1
32	Қарши Муҳандислик-иқтисодиёт институти	950	**12**	1	0	5	1	1	2	1	0	1
33	Қарши шаҳар 33-имконияти чекланган болалар учун махсус мактаб	103	**2**	0	0	1	0	0	0	0	0	1
34	Қарши шаҳар 17-Имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган таълим муассасаси	237	**3**	1	0	1	0	1	0	0	0	0
35	Вилоят 18-сонли Куриш буйича имконияти чекланган болалар учун ихтисослаштирилган давлат таълим муассасаси	144	**4**	0	1	1	0	0	0	0	0	2
36	2-Мактабгача Таълим Муассасаси	34	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
37	7-Мактабгача Таълим Муассасаси	22	**1**	0	0	1	0	0	0	0	0	0
38	9-Мактабгача Таълим Муассасаси	33	**2**	1	0	1	0	0	0	0	0	0
39	10-Мактабгача Таълим Муассасаси	32	**2**	1	0	1	0	0	0	0	0	0
40	14-Мактабгача Таълим Муассасаси	75	**2**	0	1	1	0	0	0	0	0	0
41	17-Мактабгача Таълим Муассасаси	79	**2**	1	0	1	0	0	0	0	0	0
42	2-умумий ўрта таълим мактаби	86	**3**	1	0	2	0	0	0	0	0	0
43	4-умумий ўрта таълим мактаби	84	**3**	1	0	2	0	0	0	0	0	0
44	9-умумий ўрта таълим мактаби	114	**4**	1	1	2	0	0	0	0	0	0
45	15-умумий ўрта таълим мактаби	74	**3**	1	0	2	0	0	0	0	0	0

46	21-умумий ўрта таълим мактаби	80	**3**	1	0	1	1	0	0	0	0	0
47	26-умумий ўрта таълим мактаби	90	**3**	1	0	2	0	0	0	0	0	0
48	42-умумий ўрта таълим мактаби	65	**2**	1	0	1	0	0	0	0	0	0
49	Cotton Road ҚК МЧЖ	198	**7**	1	2	2	0	0	0	1	1	0
50	Қашқадарё худудий электр тармоқлари	2342	**20**	2	3	6	2	2	2	2	0	1
51	"DUNYO-M" aksiyadorlik jamiyati	508	**10**	2	3	2	0	0	1	1	1	0
52	Қарши шаҳар ҳокимлиги ҳузуридаги Ободонлаштириш бошқармаси	729	**13**	3	1	3	1	1	2	1	0	1
53	Қ/В "Сувоқава" МЧЖ	898	**8**	2	1	2	0	0	1	0	1	1
54	Қарши темир йўл таъмирлаш корхонаси (ПЧ12) АЖ	734	**4**	1	0	2	0	0	1	0	0	0
55	Қарши минтақавий темир йўл узели	612	**6**	2	0	3	1	0	0	0	0	0
56	Қарши темир йўл шифохонаси	276	**3**	1	0	2	0	0	0	0	0	0
57	Қарши вагон депоси	693	**5**	**0**	**1**	**3**	**0**	**1**	**0**	**0**	0	**0**
58	Қашқадарё темир йўл таъмирлаш корхонаси (ПЧ-14)	367	**3**	**0**	**1**	**2**	**0**	**0**	**0**	**0**	0	**0**
59	Қарши алоқа ишорат муассасаси	401	**4**	0	1	3	0	0	0	0	0	0
60	Қарши Локомотив депоси АЖ	728	**5**	0	1	2	0	1	1	0	0	0
61	"Radiant Silk "Узбек-Хитой кушма корхонаси	198	**10**	2	7	0	0	0	0	0	1	0
62	WOOD DECOR PRODUCTION МЧЖ Sulton Tex	235	**10**	2	8	0	0	0	0	0	0	
63	Қашқадарё йўллардан мунтазам фойдаланиш уни тар корхонаси	554	**5**	1	1	1	0	0	0	1	0	1
64	"Янги турдаги темир бетон технологияси" МЧЖ	102	**6**	1	2	0	0	1	1	1	0	
65	Қашқадарё Эко транс МЧЖ	225	**9**	1	1	2	1	1	1	1	1	0
			370	**66**	**83**	**108**	**17**	**23**	**24**	**14**	**5**	**30**

7	Z.Abulqosimov	Qarshi shahar TMEK raisi

Қарши шаҳар ҳокимининг
2021 йил 15 октябрдаги
476-4-69-Q/21-сон қарорига
3-илова

Tashkilotning nomi

_____

_____

Yuridik manzili:

_____

_____

_____ Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga taqdim etiladi.

Har oyda hisobot oydan keyingi oyning 5 kunigacha

2021 yil "___" _____ oyi uchun Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining zahiraga qo‘yish to‘g‘risida
M A ‘ L U M O T

1. _____ tumanlar (shaharlar) hokimlarining qaroriga muvofiq nazarda tutilgan hisobot yilida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari, shu jumladan, nogironlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari soni.

2. Zaxiraga qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirilganlar soni:

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining zahiraga qo‘yilgan shaxslar soni	**Hisobot davri oxiridagi holati bo‘yicha ishlamoqda (kishi)**	**Ulardan, ishga joylashtirilganlar**	
		hisobot oyida	***yil boshidan boshlab***
Jami:			
shu jumladan:			
O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun			
Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun			
"Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun			
O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun			
Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun			
Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun			
Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun			
Odam savdosidan jabrlanganlar uchun			
Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun			
odam savdosi qurbonlari			